




Ahmad Sami ELAYDI,
Ayn Shams Universiteti professori.
Misr

Ikinchi Qarabog‘ urushidan keyingi besh yil: g‘alaba, tiklanish va tinchlik taraqqiyoti yo‘li



2020-yil 27-sentabrda boshlangan Ikkinchi Qorabog' urushi va 44 kun davom etgan qahramonona janglardan so'ng Ozarbayjon bayrog'i ozod etilgan hududlarda hilpiragan lahzagacha bo'lgan davr mamlakatning zamonaviy tarixida yangi sahifa ochdi. Bu voqea mintaqadagi kuchlar muvozanatini o'zgartirib, yangi geosiyosiy xaritaning shakllanishiga turtki bergan g'alabalar timsolini yana bir bor tarix kitobiga qaytardi. Ushbu yorqin harbiy g'alaba nafaqat o'nlab yillar davomida ishg'ol ostida qolgan yerlarning ozod qilinishi, balki milliy g'ururning tiklanishi, milliy o'zlikning uyg'onishi hamda Ozarbayjonning Janubiy Kavkazda yuksalib borayotgan mintaqaviy kuch sifatidagi mavqei mustahkamlanishi nuqtayi nazaridan ham tarixiy burilish nuqtasi bo'ldi.

Bu buyuk g'alabadan keyingi besh yil davomida Ozarbayjon faqatgina chegaralari xavfsizligini ta'minlash bilan cheklanib qolmadi, balki keng ko'lamli tiklash va qayta qurish loyihalarini ham boshlab yubordi. Zamonaviy infratuzilma barpo etildi, vayron qilingan qishloq va shaharlar qayta tiklandi, yuz minglab majburiy ko'chirilgan fuqarolarning o'z ona yurtlariga qaytishi uchun sharoit yaratildi. Shu tariqa, g'alaba shunchaki harbiy voqea bo'lib qolmay, davlatning kelajakka qaratilgan strategik qarashini aks ettiruvchi umummilliy taraqqiyot loyihasiga aylandi – bu loyiha xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uyg'unligini o'zida mujassam etdi.

Bugun ushbu urushning besh yilligi arafasida Ozarbayjon yangi va tarixiy ahamiyatga ega siyosiy bosqich ostonasida turibdi. 2025-yil 8-avgust kuni AQSH



vositachiligida Ozarbayjon va Armaniston o'rtasida tarixiy tinchlik shartnomasi imzolandi. Mazkur hujjat mintaq uchun yangi istiqbollarni ochmoqda. O'zaro suverenitet va chegaralarning daxlsizligini tan olish,



kommunikatsiya va transport yo'laklarini ochish, adovat ritorikasidan voz kechish tamoyillariga asoslangan ushbu bitim donolik va sadoqat bilan amalga oshirilsa, mintaqada barqaror tinchlik va hamkorlik davrining boshlanishiga zamin yaratishi mumkin.

O'tgan besh yilni yodga olar ekanmiz, Ozarbayjon g'alabasi yakun emas, balki yangi bir boshlanish ekani ni yaqqol ko'ramiz – u yer ozodligi bilan inson qadrini tiklashni, tinchlikni mustahkamlashni va kelajakka ishonchni birlashtirgan uzoq muddatli taraqqiyot yo'lidir. Shu bois bugun Ikkinchi Qorabog' urushi shunchaki harbiy xotira sifatida emas, balki uzluksiz milliy qissa sifatida ham qabul qilinmoqda — u o'tmish saboqlarini, bugunning yutuqlarini va kelajak umidlarini o'zida mujassam etadi.

2020-yil 10-noyabrdagi uch tomonlama bayonot bilan Ikkinchi Qorabog' urushi yakunlandi va Armaniston zimmasiga Ozarbayjon hududidagi barcha harbiy kuchlarini olib chiqish majburiyati yuklatildi. Biroq uch yil davomida bu majburiyat bajarilmadi. Aksincha, Armaniston va uning qo'llab-quvvatlagan separatistik kuchlari Qorabog'da harbiy tizimini kuchaytirdi, yangi texnika joylashtirdi, mustaqillik iddaolaridan voz kechmadi va soxta tuzilmalar orqali Ozarbayjon davlatiga qarshi faoliyatini davom ettirdi.

2023-yil sentabrda yuz bergan terror hodisalari va ziyatni keskinlashtirdi. Ahmadbeyli – Fuzuliy – Shusha avtomobil yo'lida minalarning portlashi natijasida tinch

aholi va harbiylar halok bo'lishi, shuningdek, Ozarbayjon armiyasi pozitsiyalarining kuchli o'qqa tutilishi sabr kosasini to'ldirgan so'nggi voqea bo'ldi. Natijada, Ozarbayjon konstitutsion tuzumi tiklash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va xalqaro huquqqa asoslangan suveren huquqlarni himoya qilish maqsadida lokal xarakterdagi antiterror operatsiyasi zarur choraga aylandi.

Antiterror tadbirlari 2023-yil 19-sentabrda boshlandi va atigi 23 soatu 43 daqiqa davom etdi. Ozarbayjon armiyasi yuqori professionallik, texnologik ustunlik va puxta strategik rejalashtirish tufayli qisqa muddat ichida barcha maqsadlarga erishdi, Qarabog'da separatizmga barham berdi hamda mamlakatning hududiy yaxlitligi va suverenitetini to'liq ta'minladi.

Arman ishg'olidan "Qarabog'" va "Sharqiy Zangazur" hududlari ozod etilganiga atigi besh yil bo'ldi. Bir vaqtlar vayron qilingan, talon-toroj etilgan va minalar bilan to'lib-toshgan yerlarning suratlari butun dunyoni kezgandi. Bugun esa bu hududlarni tanish mushkul: shahar va qishloqlar qayta tiklanmoqda, yo'llar qurilmoqda, yerlar ekilib, hosil bermoqda, korxonalar faoliyat yurita boshlamoqda, o'nlab yillar davomida majburiy ko'chkinlik hayotini kechirgan minglab ozarbayjonliklar yangi uylarida istiqomat qilmoqda. Bu o'zgarishlar sur'ati hayratlanarli, natijalari esa yanada ta'sirli, ayniqsa, 35 yil avvalgi mustaqillikning ilk yillaridagi vaziyat bilan qi-

yoslaganda. O'sha paytda ko'pchilik Ozarbayjon uzoq yillar qashshoqlik va umidsizlik girdobida qoladi, deb o'ylagan edi. Ammo xalq bu sinovlarni yengib o'tdi – iqtisodiy tanazzul va sobiq sovet makonidan uzilish oqibatlarini bartaraf etdi, arman harbiy tajovuzi oqibatlarini yengillashtirdi. Qisqa vaqt ichida mamlakat nafaqat sanoat salohiyatini tikladi, balki uni bir necha barobar oshirishga ham erishdi.

So'nggi besh yil Ozarbayjonning zamonaviy tarixida hal qiluvchi bosqich sifatida muhurlandi. Davlat va institutlar darajasida sa'y-harakatlar birlashib, turli strategik yo'nalishlarda keng qamrovli rivojlanish dasturlari amalga oshirildi. Tiklash ishlari avvalo minalardan tozalash, ya'ni yer xavfsizligini ta'minlashdan boshlandi, so'ng ta'lim tizimini jonlantirish maqsadida maktab va universitetlar qurildi, energetika va aloqa tarmoqlari yangilandi, zamonaviy infratuzilma xizmatlari yaratildi. Transport, avtomobil yo'llari, temir yo'l va aeroportlar sohasidagi ishlar "Qarabog'" va "Sharqiy Zangazur"ni yana Ozarbayjonning boshqa hududlari bilan bog'ladi.

Ushbu keng ko'lamli faoliyatning gumanitar va ma'muriy asosini esa "Buyuk qaytish" dasturi tashkil etdi. Mazkur dastur tufayli minglab oilalar o'z ona yurtlariga xavfsiz tarzda qaytish imkoniga ega bo'ldi.

Besh yil davomida erishilgan eng muhim natijalarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha umimlashtirish mumkin:



Minalardan tozalash

Ishg'oldan ozod etilgan "Qorabog'" va "Sharqiy Zangazur" hududlarini minalardan tozalash urushdan keyingi davrning eng dolzarb gumanitar va milliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Minalar tinch aholi va tiklash ishlarida qatnashayotgan xodimlar hayotiga bevosita xavf tug'diradi, shuningdek, infratuzilma, qishloq xo'jaligi va aholi joylashtirish loyihalarining amalga oshirishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli Ozarbayjon hukumati ANAMA – Ozarbayjon Milliy Minalardan Tozalash Agentligi orqali bu masalani 2020-yildan boshlab eng ustuvor yo'nalishlardan biri deb e'lon qildi. Bu mintaqada barqaror tinchlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi.

2020 – 2025-yillar davomida ANAMA mutaxassislari, Mudofaa vazirligining muhandislik bo'linmalari hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan hamkorlikda mamlakat tarixidagi eng keng ko'lamli minalardan tozalash operatsiyasini amalga oshirdi. 2025-yil sentabriga qadar Fuzuliy, Oqtom, Lochin, Shusha, Jabroyil, Zangilon va Tartar tumanlarida jami 227,7 ming gektar maydon tozalandi, 209 mingdan ortiq portlamagan harbiy o'q-dorilar aniqlanib, zararsizlantirildi. Ular orasida qariyb 38 600 ta piyodaga qarshi mina, 22 200 ta tankka qarshi mina va 148 mingdan ortiq portlamagan jangovar snaryadlar bor. Hozirda guruhlar haftasiga 1400 gektardan ortiq hududni tozalamoqda, bunda zamonaviy elektron detektorlar, zirhli texnika va maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mina qidiruvchi itlardan foydalanilmoqda.

Gumanitar nuqtayi nazardan, bu yillar davomida minalar 400 dan ortiq inson talofatiga sabab bo'ldi, ular orasida halok bo'lgan va jarohatlangan tinch aholi va-killari, harbiylar, mina tozalovchilar, fermerlar hamda o'z yurtiga qaytayotgan fuqarolar bor.

Xalqaro hisobotlarga ko'ra, Ozarbayjon bugungi kunda minalar bilan eng ko'p ifloslangan davlatlardan biridir. Hukumat bahosiga ko'ra, ozod etilgan hududlarda bir yarim milliondan ortiq mina mavjud bo'lib, ularni to'liq tozalash yillar talab qiladigan va milliardlab dollar mablag'ni zarur etadigan jarayondir.

Ammo barcha ushbu xavf-xatarlarga qaramay, tozalash ishlarining jadallashuvi va ozod etilgan hududlarning xavfsiz holga keltirilishi Ozarbayjonning "Qorabog'"ni o'lim hukm surgan makondan hayot va bunyodkorlik maskaniga aylantirishga bo'lgan qat'iyatini yorqin namoyon etmoqda.

Ta'lim muassasalari

Ta'lim ozod etilgan hududlarni tiklash bo'yicha davlat strategiyasining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Hozirda ushbu hududlarda 20 dan ortiq maktab faoliyat yuritmoqda, kelgusi o'quv yilida esa ularning soni 40 tadan oshishi kutilmoqda.

Faqatgina 2025-yilda bu hududlarda 14 ta umumta'lim muassasasi foydalanishga topshirildi, ularda 284 nafar o'qituvchi ishlamoqda va 2 400 dan ortiq o'quvchi tahsil olmoqda. Shuningdek, shu yilning o'zida 6 ta maktabgacha ta'lim muassasasi (bolalar bog'chasi) ham ochildi, 209 nafar bola 20 nafar tarbiyachi nazoratida tarbiya olmoqda. Bu ko'rsatkichlar Qorabog' va unga tutash hududlarda ijtimoiy hamda ta'lim hayoti ozodlikdan keyingi besh yil ichida qanchalik tez tiklanганиni yaqqol ko'rsatadi.

Ozod etilgan hududlarda ta'lim sohasidagi eng muhim yutuqlardan biri – 2023-yilgi prezident farmoni bilan tashkil etilgan Qorabog' universitetining ochilishidir. Universitet 2024/2025 o'quv yilida Xonkandida faoliyat boshladi va ozod etilgan hududlarda barpo etilgan ilk davlat oliy ta'lim muassasasiga aylandi.

Qorabog' universitetida 6 ta fakultet va 27 ta mutaxassislik mavjud bo'lib, ular muhandislik, pedagogika, tillar, iqtisodiyot, tibbiyot va gumanitar fanlarni qamrab oladi. Fan va ta'lim vazirligi ma'lumotiga ko'ra, birinchi yil uchun 1 120 nafar talaba qabul qilish rejalashtirilgan bo'lsa, amalda 1 104 nafar talaba qabul qilingan — bu rejaning 98,5 foiz bajarilganini anglatadi.

Nafaqat o'quv binolari, balki zamonaviy talabalar yotoqxonolari, xizmat infratuzilmasi va 2025-yil fevral oyida ochilgan universitet klinikasi ham barpo etildi. Kampusning me'moriy uslubi Ozarbayjon milliy madaniy qiyofasi bilan zamonaviy texnologik jihozlanish uyg'unligini aks ettiradi.

Qorabog' universiteti nafaqat oliy ta'lim maskani, balki ilmiy-madaniy uyg'unlash va bilim orqali tinchlikni mustahkamlash ramzi hamdir. Universitet mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb etish orqali bilim va innovatsiya markaziga aylangan, shu bilan birga mintaqada barqarorlik va intellektual rivojning tayanch nuqtasiga aylangan.

Energetika va aloqa

Energetika va aloqa loyiholari 2020-yilda yakunlangan Ikkinchi Qorabog' urushidan keyingi tiklanish va barqaror rivojlanish bosqichining asosiy ustunlaridan hisoblanadi. Uzoq yillar ishg'ol ostida qolgan hududlarda elektr, suv va aloqa infratuzilmasi deyarli butunlay vay-





ron qilingan edi. Shu bois ularni qayta tiklash aholining qaytishi va ijtimoiy xizmatlarni ta’minlash uchun milliy ustuvor vazifa etib belgilandi.

Ozarbayjon hukumati barqaror energetika va zamonaviy aloqa nafaqat kundalik ehtiyojlarni qondirish, balki

ishlab chiqarishga yo’naltirilgan iqtisodiyot va integratsiyalashgan jamiyatni shakllantirish uchun ham asosiy shart deb hisoblaydi.

So’nggi besh yil ichida energetika sohasida sezilarli natijalarga erishildi. “Ozarenergiya” AJ tomonidan





Füzuliy, Lochin, Shusha, Oqtom və Jabroyil tumanlarında 110 kV kuchlanishli yangi elektr podstantsiyalari qurildi, uzoq yillar ishlamay qolgan kichik gidroelektr stansiyalari qayta ishga tushirildi. 110 va 330 kV yuqori kuchlanishli uzatish liniyalari ushbu shaharlarni milliy energe-

tika tizimiga uladi. Bundan tashqari, "Ozarnur" AJ tomonidan Fuzuliy, Shusha va Hadrutda zamonaviy boshqaruv markazlari va raqamli podstantsiyalar barpo etildi.

2021-yilda hukumat "Qorabog' va Sharqiy Zangazur – Yashil energiya zonasi" tashabbusini e'lon qildi va BP kabi xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda quyosh va shamol energetikasi loyihalarini amalga oshira boshladi. Maqsad – 2030-yilga qadar yuzlab megavatt toza energiya ishlab chiqarishdir.

Aloqa va raqamli infratuzilma sohasida Transport, aloqa va yuqori texnologiyalar vazirligi tomonidan "Aqlli shahar" va "Aqlli qishloq"

dasturlari amalga oshirilmogda. Optik tolali tarmoqlar Fuzuliy, Shusha va Oqtom kabi shaharlarni qamrab oldi, yuqori tezlikdagi internet, 4G va 5G xizmatlari joriy etilmogda. Shuningdek, davlat va ta'lim xizmatlarini raqamlashtiruvchi integratsiyalashgan markazlar tashkil





etilgan.

Shu tariqa, energetika va aloqa loyihalari shunchaki infratuzilma emas, balki barqarorlik va taraqqiyot tim-

soliga aylandi. Ular ozod etilgan hududlarni zamonaviy hayot va innovatsiya namunasiga aylantirishda muhim rol o'ynab, Ozarbayjonning yangi rivojlanish modeliga asos bo'ldi.

Temir yo'l, avtomobil yo'llari, tunnellar va aeroportlar tarmog'i

Ozarbayjon temir yo'l tarmog'ining integratsiyasi 2025-yil 10-may kuni "Oqtom" temir yo'l vokzal majmuasi va avtovokzalning ochilishi bilan tarixiy bosqichga ko'tarildi. 32 yildan so'ng Boku shahridan Oqtomga ilk yo'lovchilar poyezdi yo'lga chiqdi. Bu voqea Ozarbayjon Temir Yo'llari tomonidan rasman e'lon qilinib, "Barda – Oqtom" liniyasining ikkinchi bosqichi tarkibiy qismi sifatida taqdim etildi. Shu kuni "Oqtom – Xonkandi" yo'nalishini tiklashga tayyorgarlik ishlari boshlanganligi ham ma'lum qilindi. Ushbu logistika liniyasi Xonkandi – Shusha – milliy tarmoq bog'lanishini mustahkamlaydigan muhim transport o'qi bo'ladi.

Temir yo'l infratuzilmasidagi taraqqiyot bilan bir qatorda magistral avtomobil yo'llari qurilishida ham jadal o'sish kuzatilmoqda. Ozodlikdan so'ng darhol "Zafar yo'li" (Fuzuliy – Shusha yo'nalishi) Shushaga olib boruvchi ilk strategik yo'nalish sifatida foydalanishga topshirilgan edi. Keyingi yillarda Davlat avtomobil yo'llari agentligi ikki yo'nalishda parallel ish olib bordi:





1. “Zafar yo‘li”ni takomillashtirish — 31 km. qismga ikki qatlam asfalt-beton qoplamasi, 61 km. qismga bir qatlam qoplama yotqizilib, jami 92 km. yo‘l yangilandi. Bu yo‘l xavfsizligi va o‘tkazuvchanligini sezilarli oshirdi.

2. Yangi “Fuzuliy – Shusha” magistralini qurish — umumiy uzunligi 84,6 km. bo‘lgan ushbu yo‘lning dastlabki 48 km. qismi olti polosali, qolgan qismi to‘rt polosali etib loyihalashtirilgan. Murakkab relyef hududlarida







HEYDAR ALİYEV
FONDU

ZƏNGİLƏN MƏSCİDİ
2023-2024-CÜ İLƏRƏ ƏRZİNDƏ
HEYDAR ALİYEV FONDU
TƏRƏFİNDƏN İNŞA OLUNMUŞDUR.



ko'plab ko'prik va tunnellar qurilib, harakat qulayligi ta'minlandi. Bu magistral Shusha, Xonkandi va Fuzuliy o'rtasida turizm va iqtisodiy aloqalarning asosiy arteriyasiga aylanadi.

Shuningdek, "Qorabog'" va "Sharqiy Zangazur" min-taqalarida (masalan, Kalbajar – Lochin yo'nalishida) qariyb 80 km. tog' yo'llari va 10 km. dan ortiq tunnellar qurilmoqda. Bu loyihalar shahar va qishloqlar orasidagi masofani sezilarli qisqartirib, logistika zanjirlarining samaradorligini oshirmoqda.

So'nggi besh yil ichida ozod etilgan hududlarda uchta yangi xalqaro aeroport to'liq qurildi:


- Fuzuli Xalqaro Aeroporti – rekord darajada qisqa muddatda, atigi to'qqiz oyda barpo etilib, 2021-yil oktyabrda foydalanishga topshirildi.
- Zangilon Xalqaro Aeroporti – 2022-yil 20-oktyabrda Ozarbayjon va Turkiya prezidentlari ishtirokida ochildi.
- Lochin Xalqaro Aeroporti – 2025-yil 28-mayda foydalanishga topshirildi.

Ozarbayjon Havo Yo'llari 2024-yil 17-iyuldan boshlab Boku – Fuzuliy yo'nalishida haftasiga ikki marta muntazam yo'lovchi reyslari yo'lga qo'yilganini e'lon qildi.

"Buyuk qaytish" dasturi

Yo'llar va ko'priklar nafaqat infratuzilma vazifasini bajaradi, balki "Buyuk Qaytish" davlat siyosatining

asosiy tayanchidir. Ushbu dastur 2022-yildan boshlab Qochqinlar va majburiy ko'chirilganlar ishlari bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.





2023 – 2025-yillarning kuz mavsumlarida Lochin, Xo'jali, Oqdara, Kalbajar va boshqa tumanlarga qaytish karvonlarining yetib kelishi, uy kalitlarining topshirilishi



hamda muntazam joylashtirish jarayonlarining kengaytirilgani hujjatlashtirildi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2020 – 2025-yillar davomida ozod etilgan hududlarni tiklash va qayta qurish uchun jami 22 milliard manat (taxminan 12,9 milliard AQSH dollari) mablag' ajratilgan. Shundan 4 milliard manati (2,35 milliard dollari) 2025-yil hissasiga to'g'ri keladi.

Hukumat "Buyuk Qaytish" dasturining birinchi bosqichini 2026-yil oxirigacha yakunlashni rejalashtirmoqda. Natijada o'n minglab majburiy ko'chirilgan fuqarolarning "Qorabog'" va "Sharqiy Zangazur" hududlariga qaytishi ta'minlanadi. Bu barqarorlik va to'laqonli hayotni tiklash yo'lidagi hal qiluvchi qadam bo'ladi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan faktlar shuni ko'rsatadiki, Ikkinchi Qorabog' urushidan keyingi besh yil davomida Ozarbayjon tiklanish va rivojlanish sohasida misli ko'rilmagan natijalarga erishdi. Qisqa vaqt ichida ozod etilgan hududlarda xavfsizlik, ta'lim, energetika, transport va ijtimoiy infratuzilma sohalarida keng ko'lamli transformatsiya yuz berdi.

Atigi besh yil ichida Ozarbayjon butunlay vayron qilingan shaharlarga qayta hayot baxsh etdi, "Qorabog'"



va "Sharqiy Zangazur"ni milliy uyg'unish va umummilliy birdamlik ramziga aylantirdi.

Biroq erishilgan yutuqlar yakuniy bosqich emas, yangi taraqqiyot davrining boshlanishidir. Ozarbayjon o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlar – tiklanishni yakunlash, mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish va tinchlikni

mustahkamlash yo'lida qat'iyat bilan olg'a intilmoqda. Bu siyosat markazida esa insonni tiklash, hududlarni yana hayot bilan to'ldirish va "Qorabog'"ni milliy tiklanish hamda ozarbayjonchilikning timsoliga aylantirish g'oyasi turibdi.🌟

